Fanlar akademiyasi olimlaridan navbatdagi kashfiyot: Surxondaryodan topilgan yangi loladosh o‘simlik turi


O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti olimlari tomonidan Liliaceae (Loladoshlar) oilasiga mansub Fritillaria yakutiae ilm-fanga yangi bo‘lgan o‘simlik turi aniqlandi.



Yangi turi Fritillaria yakutiae Turginov et Tojibaev morfologik jihatdan Fritillaria bucharica va

Fritillaria baisunensis turlariga o‘xshash bo‘lsada, bir qancha muhim morfologik belgilari:

- Gullari och pushti bo‘lib, ost qismida to‘q qizil va sarg‘ish-yashil ranglar bilan ajralib turadi;
- Gulqo‘rg‘on bo‘laklarining ichki qismida sarg‘ish pushti bo‘ylama chiziqlar mavjudligi bilan (unga yaqin turlarda esa sarg‘ish-yashil chiziqlar bo‘ladi);
- Changchilari to‘q binafsha rangda bo‘lib, usti qismi tukli bo‘lishin bilan;
- Barglari keng-ellips shakldan tor lansetsimonsimon shakllarga egaligi hamda bo‘yining balandligi (25-50 sm) bilan farq qiladi.



Tadqiqot natijasi nufuzli xalqaro Nordic Journal of Botany jurnalida e’lon qilindi. https://nsojournals.onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1002/njb.04813

Fritillaria yakutiae hozircha faqat Surxondaryo viloyatining Bobotog‘ tizmasida, Chagam qishlog‘i yaqinida (700–1100 m balandlikda) tarqalgan. U qizil gil tuproqlarda o‘sadi. Mart–aprel oylarida gullaydi, ko‘p yillik geofit hisoblanadi. 2020-yilda ushbu turning atigi 300 ta yetilgan namunasi qayd etilgan.

Yangi tur molekulyar metodlarni qo‘llash orqali butun xloroplast genomi tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra:

- F. yakutiae eng yaqin qarindoshlari — F. bucharica, F. baisunensis va F. gibbosa bilan bir klasterda joylashgan;
- DNK ketma-ketligi 151 757 juft nukleotiddan iborat bo‘lib, 130 ta genni o‘z ichiga oladi;
- Molekulyar filogenetik daraxtda bu tur aniq alohida shoxcha sifatida ajralgan va 100% ishonchli ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.

Mazkur turning aniqlanishi nafaqat O‘zbekiston florasining boyligini yana bir bor tasdiqlaydi, balki uni muhofaza qilish zarurligini ham ko‘rsatadi.

Olimlarimizni yana bir ilmiy yutuq bilan tabriklaymiz!